

**BYUDJET xo'jalik yurituvchi tashkilotlarga maishiy chiqindilarni to'plash hamda olib chiqib ketish xizmatlari ko'rsatish bo'yicha 3121 - sonli Sharhnomasi**

Samarqand sh.

«20» yanvar 2023 y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar, Samarqand shahar "Maroqand obod" DUK nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi, direktor (quyida «Ijrochi» deb yuritiladi) – **Tulkinov R.M.** va Nizom asosida ish yurituvchi \_\_\_\_\_

SPV

rektorz

*L.B. Yunesor*

(Lavozimi F.I.Sh)

(quyida «Iste'molchi» deb yuritiladi)

quyidagilar yuzasidan ushbu shartnomani imzoladik:

## 1. Shartnoma predmeti

- 1.1. Mazkur shartnoma qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari ko'rsatish tartibini belgilaydi.
  - 1.2. «Iste'molchi» ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni "Ijrochi" ga o'z vaqtida va to'liq xajmda to'lashga majbur.
  - 1.3. Tomonlar qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari ko'rsatishga oid ushbu shartnoma shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 apreldagi "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 fevraldagagi 95-sonli Qarori bilan "Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risidagi Qoidalari"ga rioya qilishni o'z zimmalariga oladilar.

## **2. Ko'rsatiladigan xizmatlar uchun hisob-kitob qilish tartibi**

- 2.1. Yuridik shaxslar maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 noyabrdagi №-5580 Farmoniga asosan, 100 foizidan kam bo'limgan miqdorda oldindan to'lovnini, ko'rsatilgan xizmatlarning to'liq hisob-kitobini esa — kalendarshy oy tugagandan keyin 30 kun davomida amalga oshirishi shart. Quyidagi chiqindilar olib chiqib ketish xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar alohida shartnoma asosida kelishilgan narx evaziga amalga oshiriladi.

2.2. Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun to'lovnini hisoblash tegishli davrlarda amalda bo'lgan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi. Mazkur tariflar o'zgargan takdirda, to'lovlardan amaldagi yangi tarif bo'yicha amalga oshiriladi.

2.3. Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholash natijalariga ko'ra Iste'molchi, Ijrochining vakili, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati vakili tomonidan imzolanadigan, xizmatlar ko'rsatilmaganligini, tegishlichka bo'limgan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlovchi fakt bo'yicha dalolatnomaga tuziladi. Xizmatlar ko'rsatilmaganligi, tegishlichka bo'limgan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilgani to'g'risida tuzilgan dalolatnomaga qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlardan miqdorini qayta hisob-kitob qilish, shuningdek o'z majburiyatlarini buzgani sababli Ijrochining jarima to'lashi uchun asos hisoblanadi. Ijrochi tomonidan Iste'molchining hayoti, salomatligi va mulkiga ziyon yetkazilgan holatlarda yetkazilgan zarar fakti qayd etilgan dalolatnomaga tuziladi, u Ijrochi va Iste'molchilarning vakillari tomonidan imzolanadi. Iste'molchi, Ijrochining, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati vakillarining imzoligina dalolatnomaga haqiqiy hisoblanadi. Ijrochi vakili kelmagan taqdirda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati vakilining imzosi yetarli bo'ladi. Ijrochi vakili dalolatnomani imzolashdan bosh tortsa mazkur dalolatnomaga imzo qo'yishdan bosh tortganlik sabablarini yozma ravishda asoslashi shart. Aks holda, Iste'molchi qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni sud qarori qabul qilingungacha to'xtatishga haqlidir.

2.4. Ijrochi Iste'molchining chiqindi saklash konteynerdagи maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi hamda "Yo'naliш varaqasiga" va buyurtmachini arizasiga bajargan ishlari yuzasidan belgi qo'ydiradi. Maishiy chiqindini umumiy to'planishi m<sup>3</sup> hisobida belgilanadi.

№	Xizmat turi	(M <sup>3</sup> ) Metr kub xisobida (QQS bilan)	Miqdori (M <sup>3</sup> ) Metr kub hisobida	Grafik asosida xafta kunlarini ko'rsatish	Sharhnomalar summasi	
					Bir oyda	Bir yilda
1	Chaqiruv (Zayavka) asosida	60 222,05	87	julf kunlari	17 164 3845	5 238 31835

5239318,35 (Бешер месалихон иккега тоз ўйдануз түркмөнчелеге чарынгы) so'm tashkil etadi.

### 3. Iste'molchining huuq va mabjuriyatlari

### 3.1. Iste'molchining huquqlari:

shartnomalar asosida, o'ziga zarur bo'lgan, belgilangan sifatdagi, hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo'lgan, mulkiga zarar bermaydigan hajmdagi xizmatlardan foydalanish;

shartnomalarda ko'zda tutilgan shartlar va muddatlarga muvofiq qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlaridan foydalanish;

Ijrochidan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarining hajmi va siz xizmatlar uchun to'lov miqdorlarining o'zgargani va to'lov tartibi to'g'risidagi axborotlarni olish;

Ijrochi tomonidan shartnoma majburiyatlari sifatsiz bajarilgan hollarda Ijrochiga yozma shaklda shikoyatlar taqdim etish va Ijrochidan xizmatlar to'liq ko'satilmagani faktini tasdiqlovchi dalolatnomani tuzishni, shuningdek aniqlangan kamchiliklarning belgilangan muddatlarda bartaraf etilishini talab qilish;

xizmatlar ko'rsatilayotganda Ijrochi aybi bilan yuzaga kelgan kamchiliklarning bepul bartaraf etilishini va shartnomada kelishilgan miqdorlarda neustoyka (jarima yoki penya) to'lanishini talab qilish; shartnomada tuzilayotganda, qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni o'z vaqtida chiqarib yuborish zaruriyatidan kelib chiqqan holda, sanitariya me'yorlari va qoidalarida belgilangan so'nggi muddatlardan kechiktirmay xizmatlar ko'rsatish muddatlarini belgilash; qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari sifatsiz amalga oshirilsa, agar Ijrochi o'z vaqtida shartnomani bajarishga kirishmasa yoki sifatsiz xizmat ko'rsatsa, zararlar undirilishini talab qilib sudga murojaat etish.

Iste'molchi qonun hujjaligiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### 3.2. Iste'molchining majburiyatları:

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlari uchun shartnomada tuzish va uning talablarini bajarish; qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni, ularni tegishli turlarga ajratgan holda, bir marotaba ishlatiladigan alohida paketlarga dastlabki saralashni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 2 oktyabrdagi №-787-sonli qarorining 2 bob, 3 bob, 5 bob va 6 boblarga rioya qilinishi shart, 2002 yil 5 apreldagi "Chiqindi to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi qonunihujjalilarida belgilangan tartibda chiqindilar hisobini yuritishga, ular to'g'risida hisobot taqdim etishga; chiqindilarning hosil bo'lish normativlari va chiqindilarni joylashtirish limitlari loyiylarini ishlab chiqishga; chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish natijasida fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga, atrof-muhitga, yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o'rmini qoplashga majburdirlar. qattiq maishiy chiqindilarni ko'chalarga, suv yo'llariga, ariq va qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va ko'mib tashlash uchun ajratilmagan joylarga, shuningdek harakatdagi avtotransport vositasidan yo'laklar va ko'chalarning transport yuradigan qismiga tashlamaslik;

qattiq maishiy chiqindilarni Ijrochining maxsus avtotransport vositasiga ortish uchun ortish joyiga bemalol o'tishni ta'minlash; chiqindi to'plash konteynerlari, chiqindi to'plash shoxobchalari, chiqindi to'plovchi kamera va boshqa uskunalarning nosozliklari aniqlanganda bu to'g'rida Ijrochini darhol xabardor qilish;

Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, "Ijrochi" kechiktirilgan to'loving har bir kuni uchun 0,4% penya hisoblaydi, hisoblangan penya miqdori qarzdorlik summasining 50% idan oshmasligi lozim;

Chiqindilarni korxona xududida va ruxsat etilmagan joylarda ko'mib tashlashga yo'l qo'ymaslik;

Iste'molchi qonun hujjaligiga muvofiq boshqa majburiyatlar bo'yicha ham javob beradi.

## 4. Ijrochining huquq va majburiyatları

### 4.1. Ijrochining huquqlari:

Ijrochi shartnomma majburiyatlariga rioya qilmagani uchun Iste'molchiga nisbatan choralar ko'rishga, shuningdek qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan neustoyka (jarima yoki penya) to'lanishini talab qilishga haqli.

Ijrochi qonun hujjaligiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### 4.2. Ijrochining majburiyatları:

belgilangan muddatlarda qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishni amalga oshirish;

qonunchilikda, mazkur Qoidalarda va shartnomada belgilangan shartlarga muvofiq Iste'molchiga zarur sifatdagi qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan muddatlarda Iste'molchining buyurtma nomalarini bajarish;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun elektron to'lov tizimini tatbiq etish va real vaqt rejimida shaxsiy hisob varaqalarining holatini kuzatib borish;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarining amalga oshiriladigan rejimi va sifati bo'yicha Iste'molchilarning murojaatlari (arizalar, takliflari, shikoyatlari), shuningdek ularning ijrosi hisobini olib borish;

aholining to'liq qamrab olinishini ta'minlovchi va qonunchilik talablariga muvofiq, zarur miqdordagi chiqindi to'plash shoxobchalari qurilishini amalga oshirish;

chiqindi to'plash shoxobchalari va konteynerlarining holatini nazorat qilib borish, ularning tegishli holatda bo'lislini ta'minlash;

qattiq maishiy chiqindilarni to'plash uchun konteynerlarning zarur miqdorda bo'lislini ta'minlash;

aholining hayoti, salomatligi, shuningdek atrof muhit uchun xavfli bo'lgan bakteriyalarning va boshqa zararli muddalarning rivojlanishiga, chiqindilarning ko'plab to'planib qolishiga qarshi rejali ishlarni olib borish (konteynerlar va axlat to'plash shoxobchalari dezinfektsiyalash yoki yuvib turish yo'li bilan);

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi va tariflarining o'zgargani to'g'risida ushbu tariflar qonuniy kuchga kirishidan 15 kun avval Iste'molchining abonentlik punktlarida e'lonlar osish yo'li bilan, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali Iste'molchiga ma'lum qilish;

Iste'molchiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati bo'yicha kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik va ularni bartaraf etish choralarini qo'llish; qattiq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari uchun to'lovlar hisob-kitobining holati, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar bo'yicha qarzdorlarning yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni Iste'molchiga bepul taqdim etish.

Maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari uchun to'lovlar hisob-kitobining holati, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar bo'yicha qarzdorlarning yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni Iste'molchiga bepul taqdim etish;

## 5. Tomonlarning javobgarligi

### 5.1. Iste'molchining javobgarligi:

shartnomma majburiyatlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik;

qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirish;

xonadonda yoki xususiy uy-joyda istiqomat qiluvchilarning haqiqiy soni haqidagi haqqoniy ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish;

shartnomma shartlarida ko'zda tutilgan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni maxsus ajratilgan joylarda to'plash tartibining buzilishi.

### 5.2. Ijrochining javobgarligi:

Shartnomma majburiyatlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik;

Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar muddatining va mazkur xizmatlar ko'rsatilayotganda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlarining buzilishi;

Xizmatlar ko'rsatish va kamchiliklarni bartaraf etish muddatlarining buzilganligi uchun jarimaning o'z vaqtida to'lanmaganligi;

O'z foydalanishida bo'lган qo'riqlanuvchi va qo'riqlanmaydigan konteynerli chiqindi to'plash shoxobchalarining texnik holati; xizmat ko'rsatmaslik yoki sifatsiz ko'rsatilgan xizmatlar natijasida Iste'molchining hayoti, salomatligi va mulkiga yetkazilgan zarar.

## 6. Fors-major

6.1. Shartnoma imzolangach, tomonlar ushbu shartnoma yuzasidan majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinishlari ham mumkin. Bunda, tomonlar oldindan bilishlari yoki oldini olishlari mumkin bo'lмаган favqulodda hodisalar tufayli yuzaga kelgan yengilmas kuchlar sabab bo'lishi mumkin. Ko'chki, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar, mintaqadagi harbiy xatti-harakat va ish tashlashlar bunday sabablar sirasiga kirib, tomonlar majburiyatlarini bajarmasliklariga uzrli sabab sifatida e'tirof etildi.

## 7. Nizolarni hal qilish tartibi

7.1. Tomonlar o'rtaida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar muzokaralar yo'li bilan xal qilinadi.

7.2. Shartnoma ijrosi buyicha yuzaga kelgan nizolar, talabnoma yuborilgandan so'ng taraflar o'rtaida hal etilmagan taqdirda, nizolar amaldagi qonunchilikka asosan Samarqand shahar iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

## 8. Korrupsiyaga qarshi talablar

8.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontridi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

8.2. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lган butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdar shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Yetkazib beruvchining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Yetkazib beruvchining hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

## 9. Shartnomaning amal qilish muddati

8.1. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuziladi va xar bir tarafda bir nusxdan saklanadi. Shartnomà taraflar imzolangan paytdan kuchga kiradi.

8.1.1. Ushbu shartnoma byudjet tashkilotlari uchun G'aznachilik bo'linmasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldiagi 594-sonli Qaroriga muvofiq, majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. Byudjetdan mablag oluvchilar uchun 2016 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2850-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining G'azna ijrosi Qoidalari"ga asosan amal qilish muddati 31 dekabr 2023 yilgacha belgilanadi.

8.3. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar taraflarning kelishuviga asosan yozma shaklda amalga oshiriladi.

8.4. Ushbu shartnomada o'z ifodasini topmagan boshqa masalalarining hal qilinishida tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 fevraldiagi 95-sonli Qarori bilan "Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risidagi Qoidalari"ga amal qilishadi.

## 10. Tomonlarning yuridik manzili va revkizitlari

### "Ijrochi"

Samarqand shahar "Maroqand obod" DUK

Manzil: Samarkand shahri, Firdavsiy ko'chasi 135 uy

Tel: +998 66 237-06-89; +998 66 237-17-15

TIF Milliy bank Samarqand viloyati filiali

h/r: 2020 8000 9002 7392 7001

MFO: 00278, STIR: 207201815

Direktor

R.M.Tulkinov



M.O.

"Iste'molchi"  
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
Samarkand sh. M.Ulug'bek ko'chasi 77-a  
Manzil: Tel/Fax +99866 234-78-92, 234-76-86  
Tel: SHIX. 100010860184017099100250001  
H/r. INN: 201610451, OKONC: 82110 Maʼlumta Vazirligi  
INN: H/v: 2340 2000 3001 0000 1010  
Markaziy bank XKKM Toshkent shahri boshqarmasi  
MFO: 00014 INN: 201122919

G'aznachilik bo'linmasining nomi



YX: 23 402 000 300 100 001 010

Bank nomi: Markaziy bankning

Poshkent shahar Bosh boshqarmasi MFO: 00014

G'aznachilik bo'linmasining INN: 201122919

V. b. Temurov  
(FISH rahbar)

M.O.

Yuridik xulosa:

Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi" to'g'risidagi Qonuni talablariga muvofiq keladi.

Yurist konsultant N. Agemat. J. Eshmomatov